

ISSN: 2181-3523

Scientific Journal



Google
Scholar



digital object
identifier



OpenAIRE



Scientific Journal Impact Factor: 5.938



idea

A large, glowing lightbulb is the central visual element. The word "idea" is written in a large, white, lowercase sans-serif font inside the bulb's glass. Several thin black lines radiate from behind the letters, suggesting light or energy emanating from the word.

Innovative Development in Educational Activities

Economics
Exact Sciences
Natural Sciences
Medical Sciences
Arts and Culture
Technical Sciences
Philological Sciences
Pedagogical Sciences
Psychological Sciences
Social Sciences and Humanities

2023/6

VOLUME 2, ISSUE 6

OPENIDEA.UZ

**ISSN 2181-3523
VOLUME 2, ISSUE 6
MARCH 2023**



<http://openidea.uz/>

INNOVATIVE DEVELOPMENT IN EDUCATIONAL ACTIVITIES VOLUME 2, ISSUE 6, MARCH, 2023

EDITOR-IN-CHIEF

I. Urazbayev

Professor, Doctor of Biological Sciences, Gulistan State University

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldasheva

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

EVFEMIK OLAM MANZARASIDA O'LIM KONSEPTINING AKS ETTIRILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Ruziyeva Nafisa Zarifovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
nafisaruzieva1985@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada nutq etiketi qoidalari asosida nutqimizni pardalash, go'zallashtirish, tinglovchiga ko'ngliga ozor bermaydigan birliklar, ya'ni evfemizmlar tahlil ostiga olingan, shu asosda, har bir millat madaniyatini aks ettirishda evfemizmalrning o'rni va evfemik olam manzarasida o'lim konseptining tadqiqi amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: evfemizmlar, konsept, konseptosfera, evfemik olam manzarasi, o'lim konsepti.

Abstract: The article explores the role of euphemism in the representation of the culture of each nation and the concept of death in the landscape of the euphemistic universe, as well as the veiling, beautification of our speech under the rules of speech etiquette, units that do not disappoint the listener.

Key words: euphemisms, concept, conceptosphere, euphemic picture of the world, concept of death.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslikning o'rni beqiyos hisoblanadi. Hozirgi kunda antroposentrik paradigma tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda evfemimzlarning inson hayotidagi o'ziga xos o'rni va inson faoliyatining turli sohalarida qo'llanilishini tavsif etish lozim. Evfemimzlar hozirgi kunga qadar turli jabhalarda o'rganilgan bo'lsada, ularni konsept doirasida tadqiq etish muammolari haligacha dolzarb bo'lib kelmoqda.

Evfemimzlarni lingvokognitiv jihatdan o'rganish, asosan, u yoki bu millat vakillarining qadriyatlari, urf-odatlari, hayot tarzi, olamni anglashi kabilarga bog'liq bo'ladi. Konsept tushunchasi birinchi bor rus olimi S.A. Askoldov tomonidan tilga olingan bo'lsada, XX asrning o'rtalariga qadar ushbu tushunchaga nisbatan jiddiy yondoshuv kuzatilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1960-yillarda kognitiv tilshunoslik tilning semantik tomoniga ta'sir qila boshladи. Ushbu murakkab jihat inson tili va aqliy faoliyati, ya'ni inson tili va kognitiv faoliyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganishni talab etadi. Kognitiv tilshunoslikning asoschisi amerikalik tilshunos va psixolog Noam Chomskiydir. U bilish nazariyasiga ijodiy

yondashadi va bilish tushunchasini quyidagi uchta asosiy masala bilan bog'laydi: 1. Bilishning tabiatiga (bilish nimani anglatadi); 2. Inson ongida bilimlar tizimini shakllantirish; 3. Ma'lumotlar bazasi shaklida bilimlarni kompyuterda va zamonaviy tadqiqot texnologiyalarida qo'llash. Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik tilni kontseptual nuqtayi nazardan o'rganishni taqozo etadi. Bu tushunchalar ba'zan universal va ba'zan ma'lum bir tilda o'ziga xosdir. Bu semantikaga o'xshaydi, ammo psixolingvistikadan farq qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchta asosiy holatni kuzatish bilan tavsiflanadi. Olimlar kognitiv tilshunoslik ma'lumotlarni o'zgartirish va kodlashda asosiy rol o'ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o'rganishini aniqladilar. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu tushuncha hisoblanadi. Bunda inson tafakkuri va qurilishi muammolariga qiziquvchilarning e'tiborini tortadi. Kognitiv tilshunoslik-bu dunyoning lingvistik tavsiflashda ma'lum bir tushunchaning mohiyatini va uning dunyo voqeliklari bilan aloqasini o'rganish demakdir. Kontseptsiya kognitiv tilshunoslikning asosiy toifalaridan biri b"lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa elementidir. Kognitiv tilshunoslikda tushuncha tilning birligini ifodalovchi hayotiy obrazdir. Kontseptsiya ma'lum bir tilning semantik doirasini yaratadi. Kontseptsiyaning mohiyatini tushuntirish va tushunish til orqali amalga oshiriladi. Fanda kontseptsiya atamasi birinchi marta 1928 yilda rus olimi S. A. Askoldov [1, 267-279] tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha konseptlar shaklan uch: og'zaki, kontseptual va obrazli bo'ladi. Olim konseptlarni ikki turga bo'lish orqali ham tadqiq etadi, bunda konseptlar kognitiv va badiy turlarga ajratiladi. Olim ko'proq kognitiv konseptni eng muhim xususiyat sifatida ikkinchisidan ustun qo'yadi.

Yana bir rus tilshunosi V. A. Maslova kontseptsiya ko'p ma'noli tushuncha ekanligini ta'kidlaydi. Bunda konsept nafaqat fikrni, balki tilda so'zlashuvchilar o'ylaydigan va his qiladigan hayajon, baholash, milliy obraz va konnotatsiyani ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Kontseptsiyaning markazida madaniyatni organizhga xizmat qiladigan qadriyat prinsipi yotganligini e'tirof etadi, madaniyat esa qiymat printsipiga asoslanadi. Hozirgi kunda kontseptsiya tushunchasi tilshunoslikda dolzarb masala sifatida qaraladi. 1970-yillarda an'anaviy tilshunoslikda kontseptsiya atamasi haqida ayrim tushunchalar bo'lgan bo'lsada, u chuqur tadqiq ostiga olingani yo'q. Kontseptsiyadan to'liq foydalanish 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R. Jakendof, G. Lakof, R. Langasker asarlarini o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Olimlarning ishlarida kontseptualizatsiya va kontseptual mohiyat atamalari tez-tez qo'llanilgan.

Ilmiy izlanishlar davrida shuni anglash lozimki, konsept tushunchasini izchil o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko'proq rus olimlari tominidan olib borilganini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida konsept tushunchasi va mohiyatini o'rganishga Sh. Safarov, N. Mahmudov, T. Mardihev, M.M. Raxmatova, O'. Yusupov kabi olimlarning tadqiqotlarini aytib o'tish joiz. Aynan shu olimlarning ilmiy ishlari o'zbek

tilshunosligida konsept tushunchasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan masalalar tahlili mujassamdir va ular keyingi ilmiy izlanishlarga asos bo‘la oladi.

Konsept haqida fikr yuritilar ekan konseptsfera atamasini ham alohida ta’kidlash lozim. Zero, konsept asosida har qanday konseptosfera vujudga keldi. Konsepotsfera – bir millat, elat vakillariga tegishli bo‘lgan milliy konseptlar yig‘indisi hisoblanadi. Xalqning madaniyati, urf-odati, xalq og‘zaki ijodi, fan va badiiy adabiyoti qay darajada rivoj topgan bo‘lsa konseptsofera ham shuncha boy bo‘ladi.

Konseptlar doirasida olam manzaralari namoyon bo‘ladi. Olamning inson ongida aks etishi olam manzarasi hisoblanadi. Shu asosda olamning diniy, afsonaviy, ilmiy va lisoniy manzaralari tushunchalari fanga kirib keldi. Olamning lisoniy manzarasi bu – olam sistemasining til orqali ifodalanishiga aytildi. Yuqoridagilarga qo‘sishimcha sifatida R.X. Shirinova olam manzarasi atamasi munozaralarini quyidagicha izohlab o‘tadi: “Bugungi kunda barcha fanlarda, shu jumladan, fizika, matematika, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, etnomadaniyatshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik fanlarida ham “olam manzarasi”, “olamning lisoniy manzarasi”, “olamning ilmiy manzarasi”, “olamning milliy manzarasi”, “olamning konseptual manzarasi”, “olamning yaxlit manzarasi” atamalari borasida ko‘plab ilmiy bahslar kuzatilmoqda. Ayrim olimlarning fikricha, “olamning lisoniy manzarasi” atamasi mohiyatiga ko‘ra unchalik adekvat jaranglamaydi va shu sababli “olamni lisoniy idrok qilish manzarasi”, “olamning lisoniy modeli”, “olamning konseptual manzarasi” kabi atamalar ham taklif qilinadi”[2, 13-15.].


Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo‘lmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo‘lib, ularning shakllanishiga omil yaratadi. Chunki inson o‘zini va dunyoni anglashda umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasiga tayanadi. Inson tilni qo‘llashi, kezi kelganda tinglovchi uchun etik-estetik qoidalarga asoslangan suhbat qurishi kabi omillar yordamida o‘zbek xalqiga mos bo‘lgan andishalik, “pardalangan” so‘zlarni qo‘llash o‘zbek xalqining mentalitetini ko‘rsatishning bir misolidir. “Pardalash” har bir millat tilida o‘ziga xos qoidalariga ega.

Nutqda “pardalash” xususiyatiga ega bo‘lgan evfemizmlar lingvomadaniyat birligi sifatida namoyon bo‘lib, nutq faoliyatining barcha sohalarida qo‘llanilishini yuqoridagi bo‘limlarimlarda tahlil etildi. Evfemizmlarni turli nutq vaziyatlarida tadqiq etish, ularni ikki noqardosh til – ingliz va o‘zbek tillari milliy olam manzaralaridagi o‘ziga xosligini o‘rganishni taqozo etadi. Olam manzarasining ko‘pgina shakllari mavjud bo‘lib, bizning tadqiqotimiz markazida olamning evfemik manzarasi yotadi. Bizningcha, olamning evfemik manzarasi – olamni evfemik vositalar orqali ifodalash usuli bo‘lib, asosan, millat madaniyatini aks ettiruvchi, til fondini boyituvchi birliklar tizimidir. Shu asosda ta’kidlash lozimki, tilning evfemik fondi millatning madaniyati va mentalitetini namoyish etishda ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

MUHOKAMA

Nutq madaniyatini o‘zida aks etgan evfemizmlarning qo‘llanilishi bir nechta omillar asosida vujudga keladi. Ulardan eng muhimi tabu so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi so‘zlar bo‘lib, uyatli, nutq etiketiga zid keluvchi birliklar sifatida qo‘llanilsa, ikkinchisi tinglovchi ko‘ngliga ozor bermaslik kabi sabablarni o‘z ichiga oladi. nutqimida eng ko‘p tabuga uchragan tushunchalardan biri o‘lim tushunchasi bo‘lib nutqimizda *o‘lmoq* fe’li o‘rnida ingliz tilida, *passed away, breathed his last, met his maker, laid to rest;* o‘zbek tilida, *dunyodan o‘tmoq, ko‘z yummoq, nafasi uzilmoq, nobud bo‘loq, chirog‘i o‘chmoq, fonyi dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilmoq* kabi evfemik vositalar orqali ifoda etiladi. Ikki til lingvomadaniyati ushbu evfemimzlarning qo‘llanilish sohalarini tahlilga tortamiz.

1. “O‘lmoq” tushunchasining konseptosferasi (ingliz va o‘zbek tillari misolida).



Kollins elektron lug‘atida *Breathed his last* evfemik iborasi – “to die or be finished or defeated” [3] degan ma’noni anglatadi. Jumladan, *The moment Carey was confident that Elizabeth had breathed her last he was in the saddle, racing for the Border* [4]. Ushbu misolda ***breathed her last*** evfemik iborasi orqali Elizabethning so‘ggi nafasi chiqqani va uning dunyodan o‘tganligiga ishora qilinmoqda. O‘zbek tiliga tarjima qilinsa, insonning so‘ngi nafas olishi ma’nolarini anglatadi va *nafasi to’xtamoq* evfemasi bilan ma’nosi yaqin hisoblanadi. Masalan, *Rohib yon xonaga chiqib, to’shakka yotibdi. Bir oz vaqt dan keyin esa rohibning nafasi to’xtabdi.* (J. Ziyamuhamedov. Yeng ichidagi nikoh ahdi).

Met his maker - In various religions, when a person dies, they go to a supernatural place like heaven where they may meet their creator deity [5], ya’ni har qanday diniy

jamiyatda o‘limdan so‘ng insonlarni bu dunyodan ham go‘zal va yaxshiroq haqiqiy dunyoga, foniy dunyodan boqiy dunyoga rixlat qilishlari tushuniladi. Jumladan, “*The way he was going to die, if caught, was sealed when he ignored his people’s calls for a more open and free society. Instead he vowed to hunt them down one by one, alleyway by alleyway, like rats. Ironically that’s how he met his maker.*”[6]. O‘zbek lingvomadaniyatida ham shunday tushuncha mavjuddir. Masalan, *Bir necha daqiqadan keyin bu foniy dunyodan boqiy dunyoga rixlat qiladi.* (Said Ahmad. Kiprikda qolgan tong)

Laid to rest - to bury a dead person [7], ya’ni o‘lgan insonni ko‘mmoq deb tarjima qilinadi. O‘zbek tilida *mayitni so‘ngi makonga qo‘ymoq* evfemik birligi bilan ma’nosи yaqin keladi. Jumladan, umrim bitsa abadiy makonim mana shu yer bo‘lsin. (P. Qodirov. Avlodlar dovoni.)

XULOSA

Olamning evfemik manzarasida ingliz va o‘zbek qardosh tillar oilasiga mansub bo‘lmasada, har ikkala til lingvomadaniyatida o‘lim konsepti bilan bog‘liq evfemik vositalarning o‘xhash jihatlari yuqoridagi tahlil ostiga olingan misollar orqali o‘z ifodasini topdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликована в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. - М.: Academia, 1997. - С. 267-279.
2. Ширинова Р.Х. Олам миљий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши. Дисс... фил.фан.док. – Т., 2017, – Б. 17.
3. <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/breathe-ones-last>
4. <https://www.ldoceonline.com/dictionary/breathe-your-last-breath>
5. https://en.wiktionary.org/wiki/meet_one%27s_maker
6. <https://www.reuters.com/article/uk-libya-arabs>
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/lay-to-rest>
8. Ruziyeva Nafisa Zarifovna. (2023). EUPHEMISMS IN POLITICAL DISCOURSE. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers, 11(2), 626–631. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7663172>

64

Q.M.Xamitova. (2023). DUZ HÁM IĞALLILIQTÍN KÓSHIW PROCESSIN MODELLESTIRIW HÁM GRADIENTLIK USILINAN, REGULYARIZACIYALAWDAN PAYDALANIP OPTIMIZACIYALAW.

Innovative development in educational activities, 2(6), 425–429.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7787122>

65

Abdukhalinova Sarvinozhon. (2023). SINTAKSISNING O'RGANISH OB'YEKTI VA GAP NAZARIYASI. Innovative development in educational activities, 2(6), 430–437. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787125>

66

Абдуллаева Тахмина Шералиевна. (2023). МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ КАТЕГОРИИ (НА МАТЕРИАЛАХ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ). Innovative development in educational activities, 2(6), 438–442. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787127>

67

Ruziyeva Nafisa Zarifovna. (2023). EVFEMIK OLAM MANZARASIDA O'LIM KONSEPTINING AKS ETTIRILISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA). Innovative development in educational activities, 2(6), 443–447. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787138>

68

Saidova Dilsora Sulton qizi, & Tolibova Oqila Yoqubovna. (2023). TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA TO'GARAKLARDA AMALIY ISHLARNING MAZMUNI VA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. Innovative development in educational activities, 2(6), 448–455. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787143>

69

Alimardanov Elyor Ilxom o'g'li. (2023). SHIX QISHLOG'I SHEVASINING AREAL LINGVISTIK TAVSIFI. Innovative development in educational activities, 2(6), 456–463. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787154>

70

Kh.T.Murodilov, & U.Q.Toshmatov. (2023). CREATING MAPS OF AGRICULTURE AND CLUSTERS BY USING GEOINFORMATION SYSTEMS. Innovative Development in Educational Activities, 2(6), 464–470. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7787159>